

## BOLALARDA UCHROVCHI ONKOLOGIK KASALLIKLAR

*Nargiza Qoziraximova Qodrjonovna*

*Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi*

*Zafarova Mumtozbegim Omadbek qizi*

*Namangan daslat universiteti Tibbiyot fakulteti*

*Pediatriya ishi Ped. BU24. 2-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar orasida uchraydigan onkologik kasalliklarning asosiy turlari, sabablari, klinik belgilari va davolash usullari yoritilgan. Xususan, leykoz, miya o'simtalari, limfomalar, neyroblastoma kabi keng tarqalgan bolalar saratonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, erta diagnostika, zamonaviy terapiya usullari va profilaktik choralar muhimligi ta'kidlangan. Maqolaning maqsadi – pediatrik onkologiya sohasidagi bilimlarni mustahkamlash hamda bolalarda saraton kasalliklarini erta aniqlash va samarali davolashga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'rganishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Metastaz, Benign, malign, leyko'z, limfoma, immunoterapiya, onkologiya, saraton, rak .

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные виды, причины, клинические симптомы и методы лечения онкологических заболеваний, встречающихся у детей. В частности, представлена информация о распространенных детских онкологических заболеваниях, таких как лейкемия, опухоли головного мозга, лимфомы и нейробластома. Также была подчеркнута важность ранней диагностики, современных методов терапии и профилактических мер. Целью статьи является укрепление знаний в области детской онкологии и изучение подходов, направленных на раннее выявление и эффективное лечение онкологических заболеваний у детей.

**Ключевые слова:** Метастаз,. Доброкачественные, злокачественные, лейкоz, лимфома, иммунотерапия, онкология, саратон, рак.

**Abstract:** The article discusses the main types, causes, clinical symptoms and treatment methods of oncological diseases occurring in children. In particular, information is provided on common childhood oncological diseases such as leukemia, brain tumors, lymphomas and neuroblastoma. The importance of early diagnosis, modern methods of therapy and preventive measures was also emphasized. The purpose of the article is to strengthen knowledge in the field of pediatric oncology and to study approaches aimed at early detection and effective treatment of oncological diseases in children.

**Keywords:**Metastasis, benign, malignant, leukemia, lymphoma, immunotherapy, oncology, saraton, cancer.

Avvalam bor onkologiya haqidagi umimiyt malumotga ega bolsak. Bu inson organizmida hujayralarning nazoratsiz va tartibsiz ko'payishi natijasida hosil bo'ladigan o'smalar (shishlar) bilan bog'liq kasalliklar guruhidir . Ular maraton (rak) deb ham yurutiladi .

- Assay hususiyatlari :

Hujayralar o'z funksiyasini yo'qotadi va tez ko'payib, sog'lom to'qimalarni siqib chiqaradi.

O'sma yaxshi sifatli (benign) yoki yomon sifatli (malign) bo'lishi mumkin . Yaxshi sifatli o'smalar asta o'sadi va boshqa a'zolarga tarqamaydi . Yomon sifatli o'smalar esa atrofdagi to'qimalarga o'sib kirib qon va limfa orqali butun tanaga tarqaladi (metastaz)

Bolalarda uchrovchi onkologik kasalliklarning sabablari:

1. Irsi omillar – Ba'zi saraton turlari genetik moyillik bilan bog'liq bo'lishi mumkin (masalan, oilaviy leykoz).

2. Radiatsiya ta'siri – Homiladorlik vaqtida yoki bolalikda yuqori darajadagi radiatsiya ta'siri saraton xavfini oshiradi.

3. Kimyoviy moddalar – Ba'zan onaning homiladorlik paytida ta'sirlangan kimyoviy moddalari (masalan, zaharli moddalar yoki ba'zi dori vositalari) saraton rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

4. Viruslar – Ba'zi viruslar (masalan, Epstein-Barr virusi, retroviruslar) ba'zida onkologik kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

5. Immun tizimining buzilishi – Tug'ma yoki orttirilgan immun yetishmovchiligi saraton xavfini oshiradi.

Bolalarda uchrovchi asosiy onkologik kasalliklar:


Leykoz (qon saratoni)

Linfoma (limfa tugunlari saratoni) Neyroblastoma (asosan yosh bolalarda) Wilms o'smalari (buyrak saratoni) Miya o'simtalar

Retinoblastoma (ko'z saratoni)

Sog'lijni saqlash vazirining qayd etishicha, bu kasallikka qarshi kurashish uchun Xorazm viloyatida onkologiya dispanseri tashkil etildi. Bugun shu kecha kunduzda 7 ming nafar onkologik bemor Xorazm viloyatiga to'g'ri kelyapti. 2019-yilda ularning 3 yarim ming nafari order bilan davolanish uchun poytaxtga qatnagan bo'lsa, 2020-yilga kelib, bu ikki baravarga kamaydi. Ya'ni bemorlarning markazga kelishi 3 yarim ming nafarga, 1 ming 700 ta orderga kamaydi. 2021-yilda bu raqam 750 taga tushdi va 2022-yilga kelib bor yo'g'i 131 tani tashkil etdi.

Quidagi statistikada bemorlar soni yil mobaynida keltrilgan.



Bolalarda onkologik yasalliklar haqidagi ani istatistik ma'lumotlar cheklanglan. Birol sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra' har yili dunyo bo'y lab 0-19 yoshdagi 400 minga yaqin bola va osmio maraton kasalligiga chalinadi.

Quyida bolalarda eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklar, ularning belgilar va asoratlari keltirilgan:

**Leykemiya (qon saratoni)** -qonning xavfli o'sma kasalligi bo'lib, periferik qonda yetilmagan leykositlar miqdorining ortib ketishi bilan kechadi.

Belgilar:

Tez-tez infeksiyalarga chalinish Tez charchash, holsizlik

Qon ketish va ko'karishlar (gematomalar) Ishtaha yo'qolishi, ozib ketish

Qorinda og'riq (dala limfa tugunlari yoki taloq kattalashishi)

Asoratlari:

Immunitet pasayishi Surunkali infeksiyalar Anemiya (qon kamligi)

**Davolash:** Kimyoterapiya, nur terapiya, suyak iligi transplantatsiyasi

**Prognoz:** 5 yil va undan ortiq yashay olishi 57% tashkil qiladi

**Neyroblastoma.** kamdan -kam uchraydigan, besh yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydigan kam uchraydigan saraton. U neyroblast deb ataladigan asab hujayralaridan rivojlanadi. Bu hujayralar ko'krak va oshqozon (qorin) orqasida oqadigan zanjirda topilgan.

**Belgilar:**

Qorin sohasida qattiq massa (o'sma) Qorin og'rig'i, qabziyat  
Teri rangi sarg'ayishi  
Ko'z atrofida qora halqalar

**Prognoz:** Qoida tariqasida, neyroblastoma IV bosqichda tashxis qo'yiladi, bunda bemorlarning 5 yillik omon qolish darajasi 20% dan oshmaydi. Prognoz yosh bolalarda, ayniqsa suyak iligiga metastazlar bo'lmasa, eng qulaydir. Umuman olganda, bemorning omon qolishi taxminan 50% (49-55%). Bosqich bo'yicha omon qolish darajasi: 1 bosqichda 100% gacha, 2 bosqichda - 94%, 3 bosqichda 60% (67-57%), 4 bosqichda - 10-20%. 4S bosqichi uchun 1 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun omon qolish darajasi taxminan 75% ni tashkil qiladi.

Quida onkologik kasalliklarning 2 tasnif misali keltrldi bundan misollar afsuski juda ham ko'p hisoblanadi . Afsuski bu kasaplik Bilan og'rigan bolalarning taqdiri oxiri o'lim bilan tugamoqda .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ESMO Handbook of Oncological Emergencies. Paris A Kosmidis, Dirk Schrijvers, Fabrice Andre, Sylvie Rottey. (2005)  
<https://doi.org/10.1201/9780203008447>
- 2 New Techniques in Oncologic Imaging Anwar R. Padhani, Peter L. Choyke (2005) <https://doi.org/10.1201/b21633>
3. Minimally Invasive Uro-Oncologic Surgery Robert G. Moore, Jay T. Bishoff (2005) <https://doi.org/10.1201/9781003579502>
4. Chronic Myeloid LeukemiaA Handbook for Hematologists and Oncologists Tariq I. Mughal (2013) <https://doi.org/10.1201/b15119>
5. Supportive Care In Cancer A Handbook For Oncologists. Jean Klastersky, Jean Schimpff, Hans-Jorg Senn (1999) <https://doi.org/10.3109/9780203909799>